

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
O`ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI**

**O`ZBEK TILI VA ADABIYOTI O`QITISH METODIKASI
KAFEDRASI**

KURS ISHI

**Mavzu: “Devoni lug`otit – turk asarida mavsum va
marosim qo`siqlarining matni ustida ishlash**

Bajardi: D. Bobojonova

Tekshirdi: M. Sattorova

Navoiy-2013

**Mavzu. “Devoni lug`otit – turk asarida mavsum va marosim
qo`siqlarining matni ustida ishlash**

I.Bob. Adabiyot– insoniyatga tengdosh eng qadimiy san’at.

I.1. O’zbek nasrining ilk manshalalari.

I.2. Adabiyot - ma’naviyatni yuksaltirish omilidir.

**II.Bob. “Devoni lug`otit – turk” asaridagi mavsum va marosim
qo`shiqlarining g’oyaviy talqini..**

II.1. “Devonu lug`otit – turk” asarining yaratilish tarixi.

**II.2. Mavsum va marosim qo`shiqlaridan namunalar matni ustida
ishlash yuzasidan tavsiyalar**

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi ta'lim va tarbiya jarayonini davr talablari asosida, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarga mos ravishda uzluksizlik va uzviylik tamoyillariga rioya qilgan holda yangi pedagogik texnologiya darajasida, shuningdek, ukitishning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanib tashkil etishning mazmuni, shakllari, metod va usullarini izlash, ishlab chiqish, milliy pedagogika fanining talablari asosida maktab adabiy ta'limida ro'y bergan o'zgarishlarni amaliyotga tatbiq etish yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashning muhim omillaridan hisoblanadi. Badiiy asar – yuksak estetik qadriyat. U o'sib kelayotgan yosh avlodning axloqiy izlanishlari manbai hamdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirishning ahamiyati o'quvchilar ma'naviyati xususida to'xtalib, quyidagilarni ta'kidlagan edi:

«Ma'naviyat-insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'atadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir¹

Prezident I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zida o'tgan davr mobaynida xalqimiz barcha sohalarda ulkan yutuqlarni ko'lga kiritganini, davlat va jamiyat kurilishi sohasida tub islohotlar amalga oshirilganligini ta'kidlash bilan birga, "...oldimizda turgan ulkan marralarni egallashning eng asosiy mezoni - bu xalqimizning baquvvat iymon-e'tiqodi, tobora yuksalib borayotgan ongu tafakkuri, hayotga, mehnatga, mulkka munosabati tubdan o'zgarayotgani, o'z fuqarolik burchini chuqur anglab, Vatanga muhabbat va sadoqat, daxldorlik tuyg'usi bilan yashayotganida namoyon bo'lmokda" deb, bu sohada muhim vazifalarni amalga oshirish zarurligini

¹ A.Каримов. Юсак маънавият-йенгилмас куч. Тошкент. "Маънавият" 2008 й. 19-бет.

ko'rsatib o'tdi.² Yozuvchi mahorati ham inson qalbini qay darajada haqqoniy tasvirlay olishi bilan belgilanadi. Binobarin, har bir ijodkor inson ruhiyati manzaralarini o'ziga xos, boshqalarga o'xshamagan tarzda kashf etish iste'dodiga ko'ra betakrordir. Iste'dod egasining ruhiy olami, e'tiqodi, shaxs sifatidagi xislat va fazilatlari, tafakkur tarzi, ta'sirlanish yo'sinining ayrichaligi uning shaxs sifatidagi qiyofasini belgilovchi xususiyatlar hisoblanadi. Aynan shu jihatlariga ko'ra yozuvchilar adabiyotda o'ziga xos uslub egasi sifatida taniladilar.

O'zbek nasrining ilk manshalari dastlab xalq og'zaki ijodi bilan bog'lanadi. Xalqimiz tilida ming yillar davomida nasldan naslga, og'izdan og'izga ko'chib yurgan ertaklar, qissalar, shubhasiz, o'z ibtidosini juda qadim zamonlardan oladi. O'rta Osiyo xalqlarining uzoq tarixga ega bo'lgan adabiyotini o'rganish unda nasrning nazm bilan yonma-yon taraqqiy etib kelganligini ko'rsatadi. Odam yozuvni ixtiro qilganidan boshlab badiiy tafakkur hosilalarini u yoki bu darajada bayon etishga o'rgangan ekan, demak, u boshqa janrlar qatorida nasrga ham murojaat etgan. Afsuski, biz nasrning ana shu ilk namunalariga ega emasmiz. Lekin bu janrning bugun bizga ma'lum namunolari o'rtasid «Avesto», «O'rxun-Enisey yodgorliklari» singari muhim manbalarning mavjudligi O'rta Osiyo xalqlari adabiyotida nasrning o'ziga xos yo'l bosib o'tganligi va rang-barang boyliklarga ega bo'lganligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, O'rxun-yenisey yodgorliklari, O'rta Osiyo xalqlarining VI-VIII asrlarga oid qimmatli yodgorliklari bo'lib, unda qabr toshlariga o'yib yozilgan ta'rix, marsiya va turli hujjatlar badiif ifoda etilgan.

O'zbek xalqi turkiy tilda eng qadimgi davrlarda yaratilgan asarlarga merosxo'rlardan biri bo'lib qolmasdan, O'rta Osiyo va Eron territoriyasida arab va fors-tojik tilida maydonga kelgan madaniy yodgorliklarda ham o'z

² И.А.Каримов Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг 17 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги табрик сўзи. Халқ сўзи. 2008 йил, 1 сентябр

hissasini ko'radi. Chunki arab tarixchisi Tabariy, Mas'udiy, Saolibiy, Bal'amiy kabilarning asarlarida O'rta Osiyo xalqlari og'zaki ijodining ko'p namunalari mavjud. Chunonchi, O'rta Osiyo va Eron xalqlari o'rtasida eng qadimiy davrlardan boshlab mashhur bo'lgan Kayumurs, iyovush, Jamshid to'g'risidagi afsonalarning mufassal bayoni va variantlari Tabariyning «Tarixi Tabariy» asarida, shuningdek, shu afsonalarning ayrim variant va xronologiyasi haqida qiziqarli fikrlar Beruniyning «Al osorul-boqiya an-al-qarun-ul holiya» kitobida ham keltiriladi.

XI asrning mashhur olimi Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida keltirilgan maqol, matal, she'riy parchalar qatorida ayrim qissa va afsonalarning izlari ham ko'zga tashlanadi.

Mahmud Qoshg'ariy o'z asariga xarakteristika berib shunday deydi: «Men shu kitobni maxsus alifbe tartibida hikmatli so'zlar, sajlar, maqollar, qo'shiqlar, rajaz va nasr deb atalgan narsalar bilan bezadim». Asarda Alp Ertunga (Afrosiyob), Iskandar kabilar to'g'risidagi mavjud ayrim kichik hajmdagi afsona hamda rivoyatlar keltiriladi.

XIII asr oxiri va XIV asr boshlarida yaratilgan nasrning yirik namunalaridan biri «Qissai Rabg'uziy» asaridan o'rin olgan hikoyatlar, rivoyat, naqlarga Qur'on va boshqa diniy kitoblardan, tarix asarlari va turli xalqlardan kirib kelgan afsona va rivoyatlar ham zamin bo'lib, ular turkiy epik tradisiya ta'sirida yangi mohiyat va xususiyat kasb etdi.

Darhaqiqat, «Qissai Rabg'uziy»dagi hikoyatlarning manbalari yuzasidan olib boriladigan izlanishlar masala tarixini kengroq tasavvur qilishga imkon beradi.

Adabiyot tarixi fani badiiy adabiyotning tarixiy taraqqiyot jarayonini o'rganadi va o'rgatadi. Har bir xalqning o'z tarixi, madaniyati, san'ati va adabiyoti bor. Shunga ko'ra, adabiyot tarixi ma'lum bir xalqning nomi bilan ataladi.

Har bir xalq, uning katta-kic'ikligidan qat'iy nazar, ja'on adabiyoti xazinasiga o'z 'issasini qo's'adi. Shunga ko'ra, alohida xalqlarning nomi

bilan atalgan adabiyotlar tarixi ayni chogʻda umumjahon ilm-fani, sanʼati va adabiyoti taraqqiyotiga katta hissa qoʻshadi, buyuk olimlarni, sanʼatkorlarni va yozuvchilarni yetishtiradi, boshqa xalqlar bilan yaqindan aloqada boʻladi.

Oʻzbek xalqi maʼnaviy madaniyatining katta va ajralmas bir qismi oʻzbek mumtoz adabiyoti tarixidir. Xoʻsh, bu fanning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

Oʻzbek mumtoz adabiyoti oʻtmishda yaratilgan turli tur va janrdagi badiiy asarlarni oʻrganadi. Lirik va epos oʻtmish oʻzbek adabiyotining asosiy turlaridir. Gʻazal, mustaʼzod, muhammas, musaddas, noma, ruboiy, doston, masal, hikoya va boshqalar esa keng tarqalgan adabiy janrlardir. Oʻzbek mumtoz adabiyoti fani maqsad va vazifalaridan biri tur va janrlarning shakllanishi va rivojlanish tarixini tadqiq etishdir.

Adabiyot tarixining vazifalaridan biri nihoyatda muhim adabiy hodisalarni tekshirishdir. Adabiy taraqqiyot jarayonini tadqiq qiladi hamda sanʼatkorlar ijodining shu jarayondagi oʻrni va ahamiyatini belgilaydi.

Oʻzbek mumtoz adabiyoti fani asosiy maqsad va vazifalaridan yana biri oʻtmishda yashagan shoirlar hayoti va ijodi, yaratgan asarlari haqida maʼlumot toʻplab, ommaga taqdim etishdir. Tadqiqot jarayonida yashagan davr, uning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy shart-sharoitlari ham yoritib beriladi, yaʼni, tarixiylik tamoyili (printsipi) ga asoslanadi.

Oʻtmish oʻzbek adabiyoti memuar va tarixiy asarlarni ham oʻrganadi. «Boburnoma»(Bobur), «Shajarai turk», «Shajarai tarokima»(Abdulgʻoziy), «Firdavs ul-iqbol»(Munis va Ogahiy) va boshqalar shular jumlasidandir.

Chunki, ularda tarixiy voqealar, koʻpincha, badiiy til vositasida ifodalanadi, badiiy lavhalar va sheʼrlar ularga yanada koʻproq badiiy tus beradi.

Oʻzbek mumtoz adabiyoti fani «Tohir va Zuhra», «Boʻz oʻgʻlon», «Yusuf oʻgʻlon», «Yusuf Ahmad», «Kitobi podsho Jamshid», «Qissai Farhodu Shirin» kabi xalq kitoblarini ham oʻrganadi. Bu asarlar folklorda vujudga kelgan, kitobiy yoki yozma adabiyotda paydo boʻlib, keyinchalik

xalq ijodi uslubida ishlangan asarlardir. Shunga ko‘ra, xalq kitoblari xalq og‘zaki ijodining ham, adabiyot tarixining ham predmetidir.

Tarjima adabiyot ham o‘zbek mumtoz adabiyotining muhim bir qismini tashkil etadi. O‘zbek xalqi asrlar davomida birqancha xalqlar bilan , Markaziy Osiyo va Qozog‘iston, Kavkaz va Rossiya, Gretsiya va Eron: Hindiston va Afg‘oniston va boshqa o‘lkalarning xalqlari bilan yaqin iqtisodiy va madaniy aloqada bo‘ldi. Natijada, ana shu aloqalarning mevasi sifatida tarjima adabiyot vujudga keldi. O‘zbek tiliga tojik, eron, ozarbayjon, hind , arab, va boshqa xalqlarning ko‘p badiiy asarlari va tarix kitoblari tarjima qilindi. «Xisrav va Shirin», «Haft paykar»(Nizomiy),«Guliston»,»Bo‘ston»(Sa‘diy),«Bahoriston»,

“Yusuf va Zulayho” (Jomiy), Shoh va gado (Hiloliy), Kalila va Dim-na» (Hind eposi), «Ming bir kecha» (arab xalq ertaklari), «Ravzatus-safo»(Mirxond), Badoyiul – vaqoe» (Vosifiy) va boshqalar shular jumlasidandir. Tarjima asarlarning ko‘pi aniq tarixiy ehtiyoji, talabi asosida birmuncha o‘zgartirilgan va yangiliklar kiritilgan, ijodiy qayta ishlangan asarlardir. Qutb (XIV asr) tarjima qilgan «Xisrav va Shirin»(Nizomiy), Xiromiy tarjima qilgan «Chor darvesh», «To‘tinoma» va boshqalar shu xildagi erkin tarjima asarlardir.

XIII-XIV asr o‘zbek adabiyoti Mo‘g‘ul istilosining, dahshatli hukmronlikning og‘ir natijalari oqibatida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy ahvolga qaramasdan, janr rang-barangligi bilan taraqqiy etib borganligi diqqatga sazovordir. Shu jumladan nasr ham adabiy jarayonning boyligiga aylandi. XIII asr oxiri va XIV asr boshlarida yaratilgan «Qissai Rabg‘uziy», «Nahjul farodis» kabi asarlari shu davr mahsullari bo‘lgan nasriy yodgorliklardir.

«Devonu lug‘otit-turk» asari masalasiga kelganda shuni aytish kerakki, u garchi anbiyolar to‘g‘risidagi majmua bo‘lsa-da, sof diniy ruhdagi asarlardan farqli o‘laroq, o‘zida dunyoviy mayllarning, xalq og‘zaki ijodiga xos badiiy fantaziya tasviri ko‘lamining kengligi bilan ajralib turadi.

Hozirgi zamon o'quvchilari uchun yetarli darajada tanish bo'lmagan mazkur asar va uning muallifi to'g'risida bir qancha tadqiqotlarda xarakterli fikr-mulohazalar mavjud. Bu asarga besh tomlik «O'zbek adabiyoti tarixi»ning 1 tomida ham to'xtab o'tilgan.

Manbalarda «Devoni lug'otit-turk»ning XIV asrning diqqatga sazovor adabiy yodgorligi sifatida talqin etilishi uning o'zbek adabiy tilini o'rganishda o'z o'rnini va ahamiyati borligini ko'rsatadi. Asar tradision kirish bilan boshlanib, so'ng kitobning yozilish sababi, avtorning o'zi haqida xabar beruvchi qisqacha so'zboshisi keladi.

Asar juda ko'p hikmatlardan iborat bo'lib, ularning hajmi, kompozision tuzilishi turlichadir. Hikmatlarning ba'zilar o'zaro ichki fasllarga-qismlarga bo'lingan. Gohi shunday o'rinlar uchraydiki, bir qissa ichida uning mazmunini to'ldiruvchi tamoman yangi mazmundagi mustaqil rivoyat keltiriladi.

Asardagi hikmatlar payg'ambarlar to'g'risidagi afsonalar bilan bog'liq bo'lgani, ularga asoslangani tufayli ularning diniy xarakterda bo'lishi tabiiydir. Lekin qissalar asosini payg'ambarlar to'g'risidagi rivoyatlar tashkil etishiga qaramasdan, asarda dunyoviy yo'nalishdagi, pand-nasihat ruhidagi rivoyatlarning ham keng o'rin olishi o'z-o'zidan asar qimmatini va yozuvchi mahoratini belgilovchi omillardan biri vazifasini o'taydi.

Syujet tarkibiga diniy rivoyatlar qatori dunyoviy yo'nalishdagi pand-nasihat, didaktik targ'ibot ruhidagi qiziqarli rivoyatlar bayoniga keng o'rin ajratilgani asarning o'sha davr kitobxoniga ma'lum darajada ma'rifiy, didaktik ozuqa berar edi. Bu esa nasrda yozilgan ushbu asarning el o'rtasida tez va kengroq yoyilishiga, qiziqib o'qilishiga ham sabab bo'ldi.

Xasr oxirlarida Qoraxoniylar davlati tashkil topdi. Bu davrda madaniyat, ilm-fan rivojlandi, turkey adabiy til ham taraqqiy etdi. Qoraxoniylar davrida Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit-turk», Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilig», Ahmad Yugnakiyning «Hibbat ul-haqoyiq» asarlari yaratildi.

Mahmud Qoshg`ariy Balasog`un shahrida dunyoga kelgan. Uning to`liq ismi Mahmud ibn Husayn ibn Muhammaddir.

Hozirgi Qirg`izistonda Barsg`on daryosi va Barsg`on dovoni bor. Ular Issiqko`l atrofida joylashgan. Xuddi shu yerda Barsg`on shahri bo`lgan. Mahmudning otasi va bobosi ana shu shaharda edi. Otasi Qashqarga ko`chib kelgan va Mahmud shu yerda tug`ilgan. Shuning uchun ham Qoshg`ariy nomini olgan.

Mahmud qoshg`ariy Samarqand, Buxoro, Bog`dodda tahsil olgan, arab, fors, rumoniy kabi 8-9 tilni mukammal egallagan. U qandaydir bir qirg`in paytida ota yurtini tashlab chiqib ketgan. Mahmud ko`p o`lkalarni kezadi va 1118-yilda Qashg`arga qaytib kelib, madrasada dars beradi. Olim 97 yoshida vafod etadi va O`poldagi ajdodlari maqbarasiga dafn etiladi. Maqbara hozirgacha "Hazrati Millom mozori" nomi bilan mashhur. M.Qoshg`ariy ilk geograf. Botanik, zoolog, folklorshunos, etnograf, adabiyotshunos, shoir, tarixchi va qomusiy olimdir. Uning "Javihir-un nahv fi lug`otit turk" ("Turk tili sintaksisi qoidalari") asari topilmagan.

"Devoni lug`otit turk" ("Turkiy so`zlar devoni") asari milodiy 1072-yilda yozila boshlangan va 1074-yilda tugatilgan (hijriy 464-466-yillar). Muallif bu haqda shunday degan: *"Kitob 464-yilda (hijriy) jumadul avval boshlarida boshlandi va to`rt karra yozilgandan (ko`chirilgandan) va tuzatilgandan so`ng 466-yil jumadul oxirining 12-kuni bitirildi"* Bu vaqtda 50 yoshda bo`lgan. Umuman olganda, bu asar XI asrda yozilgan bo`lib, turkey so`zlar lug`ti hisoblanadi.

Bu kitobda O`rta Osiyoda yashagan turkey xalqlarning XI asrgacha bo`lgan badiiy ijodi to`g`risida juda qimmatli ma`lumotlar jamlangan bo`lib, unda qadimgi qabilaviy hayot, ovchilik, dehqonchilik, chorvachilik bilan bog`lanib ketadigan lavhalar ko`p uchraydi. Muallif unda so`zlarning ma`nosini arab tilida izohlab beradi. Misol sifatida ko`plab xalq maqollari, hikmatlari, qo`shiqlaridan keltirgan. Bu haqda Mahmud Qoshg`ariyning o`zi yozadi: "Men bu kitobni maxsus alifbe tartibida hikmatli so`zlar, saj'lar,

maqollar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim. Bu ishda misol tariqasida turklarning tilida qo`llanib kelgan she`rlaridan shodlik va motam kunlarida qo`llaniladigan hikmatli so`zlardan, maqollardan keltirdim”.

“Devonu lug`otit turk” asarining asl qo`lyozmasi bizgacha yetib kelmagan. Uning yozilgan sanadan 200 yil o`tgach ko`chirilgan birdan-bir nusxasi Istanbul kutubxonasida saqlanmoqda. Uch jilddan iborat bu kitob 1939-1941-yillarda hozirgi turk tiliga tarjima qilinib nashr etilgn. O`zbekistonda “Devon”ning birinchi tadqiqotchisi va qisman noshiri professor Fitratdir. Bu asarni filologiya fanlari doktori, naniqli tilshunos olim S.Mutallibov hozirgi o`zbek tiliga o`giran.

“Qoshiq”, “she`r”, “qasida”, “marsiya”, “afsona”, “maqol” kabi atamalar ilk bor shu asarda qo`llangan va uyg`ur yozuvi haqida ham ilk ma`lumotlar keltirilgan. Mahmud Qoshg`riy “Devonu lug`otit-turk” asarida nazriy jihatdan *qo`shiq*, *she`r*, *qasida* kabi tur va janrlarga to`xtamagan.

Asarda mehnat va marosim qo`shiqlari, lirik qo`shiqlar va o`gitnomalar, “Qish va yoz” munozarasi, “Alp Er To`nga” (Afrosiyob) marsiyasi, savlar (afsonalar), maqollar, “Oltin qon” afsonasi (unda qadimgi turkey ajdodlarimizning Iskandar Zulqarnaynga qarshi mardliklari hikoya qilinadi), “Tangutlar bilan jang”, “Yaboqular bilan jang” kabi parchalar va shu kabilar kiritilgan. Qoshg`riyning bu asaridagi 20 ta turkiy qabilalar nomi izohlari bilan keltirilgan. Asarda turkiy xalqlar turmush manzaralari bilan bog`liq bo`lgan she`riy parchalar katta o`rin egallaydi. Ularda xalqning urf-odati, yashash tarsi, mashg`uloti, ishonch-etiqodlari ifodasi ochiq ko`rinadi. Yiggitlarni ishga safarbar qilish, meva terish, ovchilikka da`vat kabi qadimgi turmush tarzidan olingan qo`shiqlar maxsus berilgan.

Lirik qo`shiqlarda insonning qalb kechinmalari, nozik his tuyg`ulari ifodasi, tabiat va ona yurt manzaralari tasviri yetakchilik qiladi. Kishilarni qurshagan olam haqidagi qo`shiqlarda turliy xalqlarning doimiy yo`ldoshi – otlar ham alohida mavqe tutadi.Asardagi ko`pgina qo`shiqlar ovchilik,

chorvachilik bilan turkiy xalqlarning yashash tarsi bilan chambarchas bog`liq holda yuzaga kelgan. Mahmud Qoshg`ariy “qo`shiq” atamasiga “*she`r,qasida*” deb izoh beradi.

“Devon”ga kirgan adabiy shakllarning asosiy qismini *to`rtliklar (murabba`lar)tashkil etadi*. To`rtliklarda Vatan va yurt muhabbati, xalq uchun jang qilgan bahodirlar bilan faxrlanish, tabiat manzaralari go`zalligi, mehnat shavqi, turli insoniy kechinmalar talqini mavzusi yetakchilik qiladi.

“Devonu lug`otit-turk”dagi she`riy parchalar shakliga ko`ra ikkilik va to`rtliklardan tashkil topgan bo`lib, ularning ko`p qismi pand-nasihat, o`gitlardan iborat. Asardagi xalq qo`shiqlarining tasvir usullari ham nihoyatda xilma-xildir.

Mahmud Qoshg`ariy umri davomida qilgan mashaqqatli mehnati evaziga qomusiy olim va tolmas sayyoh bo`lib tanildi. U turkiy til grammatikasini ishlab chiqqan birinchi tilshunos olimdir. Turkcha, arabcha lug`atning birinchi namunasi ham uning nomi bilan bog`liq. “ devonu lug`ot it-turk” Mahmud Qoshg`ariy qoldirgan va turkiy xalqlar uchun bebaho bo`lgan qomusiy asardir. Bu asarda olim turkiy tildagi so`zlar ma`nosini arab tilida izohlab beradi. Misol sifatida esa maqollardan va badiiy adabiyotdan parchalar keltiradi.

Bu haqda Mahmud Qoshg`ariyning o`zi yozadi: “Men bu kitobni maxsus alifbe tartibida hikmatli so`zlar, sajlalar, maqollar va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim... Bu ishda misol tariqasida turklarning tiliga qo`llanib kelgan she`rlaridan, shodlik va motam kunlarida qo`llaniladigan hikmatli so`zlardan, maqollardan keltirdim”.

Shunday qilib bu kitobda O`rta Osiyoda yashagan turkiy xalqlarning XI asrgacha bo`lgan badiiy ijodi to`g`risida juda qimmatli ma`lumotlar jamlangan. Bular hozirgi avlodlar uchun ham nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Mahmud kitobida “Devonu lug`ot it-turk” (“Turkiy tillar lug`ati”) deb nom beradi va uni Abulqosim Abdullo binni Muhammad al-Muqtadoga bag`ishlaydi.

“Devonu lug`ot it-turk” XI asrda yozilgan bo`lsa-da, unga jamlanga badiiy parchalar turkiy xalqlar adabiyotining ancha oldingi davrlarida vujudga kelgan, unda jamlangan xalq og`zaki ijodi namunalarining ko`pi asar yozilgan davrdan 5-6 asr qadimroq. Ularda turkiy xalqlarning urf-odatları, ishonch-e`tiqodları marosimlar bilan bog`lanib ketadigan badiiy lavhalarni ko`ramiz.

Turkiy til ravnaqi. Qoraxoniylar hokimiyat tepasiga kelgach, turkiy tilga e`tibor kuchaydi. Xitoydan Kaspiy sohillarigacha bo`lgan kenglikda bu til hukmronlikni qo`lga ola boshladi. Bu X asrning so`ngi edi. Ko`p o`tmay, qoraxoniylar davlati zaminida uch qudratli saltanat maydonga keldi. Bular: saljuqiylar, g`aznaviylar, xorazmshohlar davlati edi. Mutaxassislar fikricha, X-XII asrlar turkiy til va adabiyot rivojida g`oyat muhim davrdir. Masalan, bu davrda yozilib, bizgacha yetib kelgan asarlar soni yigirmadan ortadi. Ulardan muhimlari quyidagilar: "Qutadg'u bilig", "Devon-u lug'otit turk", "Kitobi javohir al-navh fi-l-lug'otit turk", "Al-idrok lil-lisan at-turk", "Bil lug'atil mushtoq fi-l-lug'atit turk va-l-qipchoq", "Muqaddimatul adab", "Al-af`ol fi-l-lisonut turk". Bular orasida oliy o`rinni, shubhasiz, "Devonu lug'otit turk" egallaydi: Abdulg`afur Koshg`ariy nomli olim Koshg`ar tarixini yozgan. 1126- yilda yozilgan "Majmua ut-tavorix val-qisas" ("Tarix va qissalar to`plami")da turkiy xalqlarning qahramonliklari haqidagi afsona va hikoyatlar jamlangan edi.

Mahmud Koshg`ariy va uning "Devonu lug'otit turk" asari. Muallifning hayoti va faoliyati haqida ma`lumot deyarli yo`q. Oti Mahmud, otasining oti Husayn ekanligini asardan bilib olinadi. Ma`lum bo`lishicha, uning ota-bobolari Issiqko`l atrofidagi Barsag`on shahridan bo`lgan. Oila Koshg`ar (bu shahar xalq orasida Qashqar, Qashg`ar nomlari bilan mashhur)ga ko`chadi va Mahmud o`sha yerda tavallud topadi. Shu sababli u

o'zini Mahmud Koshg'ariy deb ataydi. Ilk savodini Koshg'arda oladi. So'ng Buxoro, Samarqand madrasalarida o'qiydi. Bag'dodda tahsil oladi. Yoshligidan til ilmiga qiziqadi. Ulkan mintaqaga yoyilgan turkiy xalqlarning urf-udumini yaqindan o'rganadi.

Uzoq, davomli sayohatlarining, mashaqqatli mehnatining samarasi o'laroq "Devonu lug'otit turk" asari maydonga keladi. Kitob qisqa muddatda Bag'dodda yozilgan. 1072- yilda boshlanib, 1074- yilda tugatilgan. U o'sha davr an'anasiga ko'ra arab tilida yaratilgan edi. "Devonu lug'otit turk", birinchi navbatda, lug'at kitobidir. Muallif Xitoydan Rungacha yoyilgan turkiy qabilalarning tilini atroflicha o'rganadi va ularning kundalik hayotda ishlatib turgan so'zlarini to'plab, arab tiliga tarjima etish va izohlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Koshg'ariy biror so'zni izohlar ekan, uning boshqa turkiy qabilalardagi variantini ham keltiradi, bugungi ifoda bilan aytganda, qiyosiy metod bilan ish ko'radi. Kitob turkiy xalqlarning tarixini o'rganish jihatidan ham katta ahamiyatga egadir. Unda quyidagi turkiy qabilalarning nomlari keltirilgan: bajanak (bular Rum sarhadiga yaqin yashaydilar), qipchoq, o'g'uz, yamak, boshqirt, basmil, qay, yaboqu, tatar, qirg'iz, chigil, tuxsi, yag'mo, ig'roq, jam, jamul, uyg'ur, tangut va Xitoy bilan yondosh yashaydigan tabg'ochlardir. So'ng ularning joylashish o'rni ko'rsatilgan rangli xarita berilgan.

Muallif yerni dumaloq tasavvur etadi va turkiy qabilalarni shunga muvofiq joylashtiradi. Atrof chegaralarni belgilaydi. Uningcha, bu qabilalar Rumdan Mochin (Xitoy)gacha yoyilgan bo'lib, uzunligi 5000, eni 3000 farsaxlik (bir farsax-6-8 km)kengliklarda yashaydilar. Yuqorida tilga olingan qabilalarning bir qismi hozirda mustaqil millatga aylanib, o'z nomini saqlab keladi. Ko'pchiligi boshqa turkiy millatlarning shakllanishida ishtirok etib, ular tarkibiga singib ketgan. Kitobda sanab o'tilgan 20 qabila bu bosh turkiy qavmlar nomi xolos. Ularning har biri, o'z navbatida, mayda bo'laklarga bo'linadi.

Masalan, muallif o'g'uz - turkmanlarning 22 qismga bo'linishini aytib, har birining nomini keltiradi. Asar birgina tilshunoslik, etnografiya emas, tarix, geografiya, folklor va adabiyotshunoslik, hatto tibbiyot kabi bir qator fanlar nuqtayi nazaridan ham qimmatli ma'lumotlar bera oladi. Masalan, Koshg'ariy buquq (bo'qoq) so'zini izohlar ekan, uning kasallik sifatidagi ta'rifini beradi, tarqalish doirasini belgilaydi, patologiyasini tasvirlaydi, naslga o'tishiga diqqatni qaratadi va hokazo. Tarix, geografiyaga oid ma'lumotlar esa juda ham ko'p. Masalan, shaharlar, daryolar haqida gap ketganda, muallif ularning joylashish o'rnini, tarixi, yon-atrofi haqida keng va atroflicha fikr yuritishga harakat qiladi. Jumladan, Etil (Volga) daryosi haqida shunday ma'lumot beriladi: "Etil - Qipchoq ellarida oqqan bir daryoning otidir. Bulg'or dengiziga quyiladi; bir irmog'i Rus diyoridadir. Ushbu parchada shunday keladi:

Etil suvi oqa turur,
Qoya tubi qaqa turur,
Baliq telim baqa turur,
Ko'lung taqi kusharur.

(Etil suvi oqayotir, Qoya tubin qoqayotir, Sonsiz baliq boqayotir, Ko'l hapriqib toshmoqda).

Muallif asarda adabiy tur, janrlar haqida ham to'xtaladi. Masalan, "qo'shug'" haqida fikr yuritib, uni "she'r", "qasida" deya izohlaydi. Adabiy-badiiy ijodning ma'naviy turmushdagi o'rniga yuksak baho beradi. Kitob "Muqaddima"sida uni "hikmatli so'zlar, sajlar, maqollar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan" bezaganini faxrlanib ta'kidlaydi. Darhaqiqat, unda Koshg'ariy o'z fikr-mulohazalarini dalillash maqsadida yuzlab "adabiy parchalar" keltiradi. Bu hol asarga alohida ko'rk bag'ishlaydi. Bu adabiy parchalarning salmoqli qismini she'rlar tashkil qiladi. Shoir: "She'rda shunday kelgan",- deydi-da, misolga o'taveradi. Ushbu she'rlar orasida xalq og'zaki ijodidan olinganlari ham ancha-muncha.

Kitobda Alp Er To'nga haqida bir necha she'riy parcha keltirilgan. "Alp" mard, botir degani. Mutaxassislar Alp Er To'ngani tarixiy shaxs deb hisoblaydilar. U - miloddan oldingi VII - VI asrlarda saltanat qurgan saqalarning qo'shin boshlig'i. Mazkur she'r uning o'limiga bitilgan marsiyadir. Marsiya - biror kishining o'limiga bag'ishlab yoziladigan she'r turi. Unda, odatda, o'sha kishining qadri, o'rni, xizmatlari va ayriliq - judolik iztiroblari aks etadi. Bu yerda biz xuddi shu holni ko'ramiz. Alp Er To'nga o'limi chidash mumkin bo'lmagan og'ir judolikdir. She'rning butun ruhi shu fikr ifodasiga qaratilgan. Ifoda esa buyuk inson va tuban dunyo muqoyasasi asosiga qurilgan. So'zlar zalvorli, o'ylar - iztirobli, tuyg'u - avj pardada:

Alp Er To'nga o'ldimu?!

Egsiz ajun qoldimu?!

O'zlek o'jin oldimu?!

Emdi yurak yirtilur.

(Mard Er To'nga o'ldimi?! Buzg'un dunyo qoldimi?! Zamon o'chin oldimi?!
Endi yurak yirtilar.)

Ulshib eran bo'rlayu,

Yirtib yaqo o'rlayu,

Siqrib uni yo'rlayu,

Siqtab ko'zi o'rtulur.

(Erlar uvlar bo'ridek, Yoqa yirtib, faryod chekadilar, Ezilib uni yo'qlaydilar,
Yig'lab ko'zi yumilur.)

Ko'nglim ichin o'rtadi,

Etmish bashig' qartadi,

Kechmish uzug irtadi,

Tun-kun kechib irtulur.

(Ko'nglim ichdan o'rtandi, Bitgan yara ochildi, O'tgan kunlarga boqdi, Tun-kun kechib, uzoqlashmoqda.) Muhimi shundaki;
bu yo'qlovlarda odamning tuyg'ulari go'zal badiiy libosga o'rab, eshitganga ham ta'sir qiladigan yo'sinda beriladi. "Devonu lug'otit turk"dagi she'riy

parchalar ajdodlar hayoti, ular boshidan kechgan issiq-sovuq kunlar, quvonch-tashvishlar oynasidir. Ularda jangovar hayot manzaralaridan mehmon kutishgacha, ishqiy-intim kechinmalardan olamni idrok etishgacha bo'lgan anvoyi va murakkab tuyg'ular o'z ifodasini topgan.

Inson borki, armon bor. Odam hamisha bir dunyo orzu bilan yashaydi. Lekin hayot otlig' hukmdor ularning hammasini ham ushaltiravermaydi. Armon xuddi o'sha nuqtada tug'iladi. U ko'pincha hasrat orqali ifoda qilinadi:

Tun-kun turib yig'layu,

Yoshim mening sovrulur.

(Kecha-yu kunduz yig'layman, Ko'z yoshlarim har tarafga sochiladi.)

"Devonu lug'otit turk" asari turkiy tilning X-XI asrlardayoq yuksak jahoniy mavqega ko'tarilganligiga dalildir.

Malumki, xalq ijodiyotining doston, ertak, rivoyat, afsona, o`lan va boshqa janrlari ijrosi uchun maxsus tayyorgarlik ko`rgan shaxslar mahorati, alohida vaqt va joy talab etadi. Bu turkumdagi katta badiiy vazifani o`tovchi janrlardan farqli ravishda kishi ruhiyatiga ta'sir etuvchi maqol, metal, afsun, duo, qanotli so`zlar, mantiqiy va g`ayrimantiqiy iboralar, yig`i, yo`qlov, olqish, qarg`ish so`kish, topishmoq va obrazli ibora kabi folklore namunalari har qanday kishi tomonidan ijro etilaverishi, yani ommaviy ijroga mo`ljallanganligi bilan farq qilib turadi.

Masalan, qarg`ish – biror kishiga ziyon-zahmat etkazishga ehtiyoj sezilgan paytda aytuvchining qarg`ish qaratilgan shaxsga nisbatan bo`lgan yomon niyatining ifodasi sifatida ijro etilgan folklore asaridir. Bu janr o`ziga xos belgilari va aytuvchi istagini ifoda etishga ko`ra so`kish, olqish janrlariga yaqin turadi. Atoqli tilshunos olim Mahmud Qoshg`arining yozishicha, XI asrda yashagan turkiy qabilalar lahjasida yaratilgan qarg`ishlar “qarg`aq” (qag`ash, so`kish) ma, nosida keltiriladi. “Tengri

qarg`g`ina ilinma” – “xudo qarg`ishiga yo`liqma”³ kabi birikmalardan qo`llangan.

“Devonu lug`otit turk”ni o`zbek tiliga tarjima qilgan tilshunos olim S.Mutallibov “qarg`aldi”, “qarg`andi” singari so`zlar ma`nosini “ha qanday munosabatlarda mahrum qilib, quvish; kimnidir urishish, unga xatar yo`llash, ziyon-zahmat tilash va nafrat bildirish...Yomonlikni chaqirish, qarg`ish, asosiy maqsadi kimnidir qarg`ish yoki uni qasam urib yo`q bo`lishini istash”⁴ – deb izohlaydi.

Asarda yana bir qancha mavsum va marosim qo`shiqlari mavjud. Ulardan ayrimlarini misol keltiramiz:

Bulnar meni ulas ko`z,
Qara mengiz qizil juz.
Andin tamar tugal tuz,
Bulnap jana ul qachar.

Ma`nosi:

Bu mast ko`zli (seviklim) porloq yuzidagi yoqimli qora xoli bilan meni asir qiladi. Xuddi (go`zal) yonoqlaridan shirinlik tomayotganday meni asir qiladi-da, so`ng mendan qochadi.

Endik kishi titilsun,
El toru yetilsun,
Toqli bo`ri jetilsun,
Qazg`u yema savilsun.

Ma`nosi:

Qilichimiz bilan qayg`uni ochaylikki, ahmoqlar yo`lga tushsinlar, mamlakat (ishi) tuzalsin, qo`zilar bilan bo`rilar (xavfsiz) birga yursinlar, bizdan qayg`u-g`am yo`qolsin.

Turlug chechak yarildi,
Barchin yazim kerildi,

³ M.Qoshg`riy Devoni lug`otit turk. Toshkent.”Fan”.1967.338-bet.

⁴ Sarimsoqov.B.Olqish va qarg`ishlar..Toshkent.”Fan”,1988.143-bet.

Uchmaq yeri ko`ruldi,
Tumlug` yana kelgusuz.

Ma'nosi,

Bahorni ta'riflab aytadi: har turli chechaklar ochildi, xuddi (sernaqsh) ipak gilamlar yozilganday.

Jannat yeri ko`rildi. Sovuq hech qaytib kelmas darajada havo isidi.

Yigitlarig ishlatu,
Yag`ach yamish irg`tu,
Qulan keyik avlatu,
Bazram qilib avnalim.

Ma'nosi:

O`yin-kulguni tasvirlab deydi:

Yigitlarni ishlatib, daraxt mevalarini qoqtiraylik, turli yovvoyi hayvonlar (qulon) va boshqalarni ovlating, bir necha kun bayram qilib yayraylik.

Jaratti jashil jash,
Savurdi o`rung qash,
Tizildi qara qush,
Tun, kun uza yurkanur.

Osmonni ta'riflaydi: tangri osmonni feruza rangida ko`m-ko`k qilib yaratdi. Yulduzlar bilan bezadi. Urukka ko`z qo`ygandek, qosh oq uruk uchun ishlatiladigan tosh – mezon yulduzi (turkcha qora qush) unda tuzildi. Kecha bilan kunduz bir-birining ustiga qoplanadi.

Igladi mening azaq,
Ko`rmazib o`g`ri tuzaq,
Ikladim andin uzaq,
Emlagil emdi tuzaq.

Yashirin tuzoqni ko`rmay, mening oyog`im ilindi, uzoq vaqt qiynalдим, ey seviklim, endi o`zing davola.

Qizil, sariq arqashib,
Jerkin, yashil yuzkashib,

Bir-bir kero` yo`rkashib,

Yalinguq ani tanglashur.

Qizil, sariq gullar bir-biriga suyanishib, yashil rayhonlar bir-biri bilan o`ralshib korinadi. Ularni ko`rgan kishi tang qoladi, hayron qoladi.

Yalvin aning ko`zi,

Yelkin aning o`zi,

Yo`lunayin yuzi

Yardi mening yurak.

Sevgilisini maqtab shunday yozadi: uning ko`zi kishi (ko`nglini) ovlaydigan sehgardir. O`zi musofirdir, yuzi to`lin oydir. Qarashi bilan u meni otib, yuragimni yordi.

Yay ko`rkinga inanma,

Suvlar uza tayanma.

Esizligig anunma,

Tildan chiqar ezgu so`z.

Bahor korkiga, uning rang-barang gullariga, chiroyliligiga ishonma, undan yaxshilik umid qilma. Suvga tayanma, chunki dunyo ne`matlarining shirinligiga, bahor go`zalligiga suyangan kishi suvga suyanganlar kabidir. Yomonlikka otlanma, tilingdan doim xalq sendan minnatdor bo`ladigan yaxshi so`zlar chiqar.

Yaruq yulduz tug`arda,

Uznu kelip baqarman,

Satula-yu sayraship

Tatlig` unun qush utar.

Yorug` yulduz tugar vaqtida uyqumdan uyg`onib, daraxtlarga qarayman, qushlarning shodlantiruvchi yoqimli sayrashlarini tinglayman.

Biligni urdadim

Bo`guni uzurdum

O`zumni azirdim

Yalg`il atim yazlinur.

Ilmu donishni istadim. Ilmli donishmandlarni qidirdim. O`zimni odamlar orasidan ayirdim. Buning uchun oq yolli otim yechiladi.

Ko`ngul kimning bo`sa qali yo`q chig`ay

Qilsa kuchun bo`lmas ani toq baj.

Ko`ngli och, yo`qsil bo`lgan kishini kuch bilan to`q, boy qilish mumkin emas.

Bulmish nengig seversan,

Aqrun angar sevingil.

Barmish nengig saqinma,

Azraq angar o`kungil.

Bor molingni sevasan, unga kamroq sevin, chunki u sendan (qo`lingdan) chiqib ketishi mumkin. Qolingdan ketgan narsa uchun qayg`urma, unga ozroq achin. Chunki achinish senga (qo`ldan ketganni) qaytarib bermaydi.

Kelsa qali qatig`liq ertar teyu seringul,

O`zlak ichin bilip tur ancha angar tirangil.

Senga tashvish va alam yetsa, o`tib ketar deb sabr qil. Dunyo ishlarini bilib turishga tirish. Har qanday kulfatni o`zingga olib, joningni qiynama.

Eshitib ota-onangni

So`zlarini qadrla,

Molu mulking ko`paysa

Mag`rurlahib quturma.

Maqollaridan namunalar:

1. “Tulki o`z iniga ursa, ujuz bo`lar” (“Tulki o`z uyasiga qarab ulisa qo`tir bo`ladi”). Mahmud Qoshg`ariy izohlashicha, “bu maqol o`z elini, urug`ini va mamlakatini yomonlovchilarga qarata aytilgan”.
2. “Erik erni yag`lig` bashi qanlig`” (“Tirishqoqninglabi yog`lik, erinchog`ning boshi qonlik”). Bu maqol yalqovlini tashlashga, g`ayrat bilan ishlashga undab aytilgan.

3. “Suv ichirmasga sut ber”. U senga yomonlik qilganda ham yaxshilik qil, degan ma’noda ishlatiladi.
4. “O`kuz azaqi bo`lg`incha, buzag`I bashi bo`lsa yik”. (“Hukizning oyog`I bo`lguncha, buzoqning boshi bo`lgan yaxshiroq”). U mustaqillik bo`ysunishdan yaxshi degan ma’noda qo`llanadi.
5. “Tavg`ch xanning to`rqusi telim, tenglamazib bichmas” (“Qoraxitoy xoqoninig ipak gazmoli ko`p, lekin o`lchamay kesilmaydi”). Bu maqol ishni boshida puxta o`ylab qilishga undab, isrofgarchilikka qarshi undab aytilgan.
6. “Uma kelsa, qul kelar” (“Mehmon kelsa qut kelar”). Bunda “senga mehmon kelsa, u bilan birga Baraka, qut-baxt keladi, qo`noqni yaxshi qarshi oladilar, malol olmaydilar” degan fikr ilgari suriladi.
7. “Qiz kishi savi yo`rig`lib o`lmas”. (“Baxil odam obro` topmaydi”). Bu maqol odamlarni yaxshi nom chiqarish, saxiy bo`lish uchun undab aytilgan.
8. “Erdam bashi til” (“Odobning boshi til”).
9. “Tilin tugmishin tishin yazmas” (“Til bilan tug`ilganni, tish bilan yechib bo`lmas”)

Xulosa

Ma'lumki, «Ona tili va adabiyot» darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini uyg'otishda, milliy tilga, o'z xalqining an'alariga iftixor hissini kamol toptirishda «Ona tili va adabiyot» darslarining o'rni beqiyosdir. Shunday ekan, biz ham o'z darslarimizni tashkil etishda aynan shu maqsadlarni ko'zlagan holda ish olib bordik.

Yangidan ijtimoiy tafakkur pedagogika fani va adabiy ta'limining maqsadi sifatida komil inson mustaqil shaxsni shakillantirishni ta'minlaydi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturining” asosiy maqsadi erkin mustaqil shaxsni shakillantirish jamiyat azolari manaviyatini sog'lomlashtirishdir. Adabiyot ta'limining maqsadi eng avvalo oddiy o'quvchidan didli kitobxon yaratish, uni adabiyotshunoslik fani olamiga oshno etishdir. Bu ishni mukammal amalga oshirish uchun adabiyot darslarida umuminsoniy qadriyatlarni, milliy urf odatlarni, xalq ma'naviyatini yosh avlod ongiga singdirib borish muhim ahamiyat kasb etadi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. A.Karimov. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. Toshkent. "Ma'naviyat" 2008 y..
2. I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zi. Xalq so'zi. 2008 yil, 1sentyabr
3. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". –T.: «Sharq», 2001. -662 bet.
4. Karimov I A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, 1997.
5. I.Yo'ldoshev."Ona tili va adabiyotdan noan'anaviy darslar.Metodik qo'llanma.Toshkent.2006.168-bet.
6. To'qliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi Toshkent 2006
7. Nurmonov. A va bosh. Hozirgi o'zbek adabiy tili.Akademik litseylarning ikkinchi bosqich talabalari uchun darslik. Toshkent."Sharq".2004-yil.
8. Sobirov M. "Munozarali dars-davr talabi" Ilmiy metodik to'plam. Toshkent 1993 yil.147 bet.
9. G'ulomov A. Shukurov "Ona tilidan o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish. Toshkent – "O'qituvchi" 1989 yil.158 bet.
- 10.Sobirov M. "Munozarali dars-davr talabi" Ilmiy metodik to'plam. Toshkent 1993 yil.147 bet.
- 11.O'zbek tilining izohli lug'ati.II tom.Toshkent.2001yil.
- 12.Fayziyev.A, Gulomova.N. Ona tili va adabiyot. Akademik litsey va kasb hunar kollejlari uchun darslik.Toshent."Sharq" 2010 yil.
13. B.To'xliyev va bosh. Adabiyot.(Majmua).Akademik litseylarning ikkinchi bosqich talabalari uchun.Toshkent."Cho'lpon".2010 yil.
14. B.To'xliyev va bosh. Adabiyot.(Majmua).Akademik litseylarning birinchi bosqich talabalari uchun.Toshkent."Cho'lpon".2010 yil.

“Devoni lugʻotit – turk asarida mavsum va marosim qoʻsiqlarining matni ustida ishlash mavzusi yuzasidan akademik litsey oʻquvchilari uchun moʻljallangan bir soatlik dars ishlanmasi

Mavzu. Mahmud Qoshgʻariy va uning “Devonu lugʻotit – turk” asari

Dars maqsadi :

- A) Taʼlimiy maqsad: Oʻquvchilarda berilgan mavvzuni qanday oʻzlashtirganini mustahkamlash. Mavzu yuzasidan oʻquvchilarning nazariy va amaliy bilim koʻnikmalarni mastahkamlash;
- B) Oʻquvchi bilim saviyasini oshirish orqali ularni erkin fikrlash ogʻzaki, yozma bilim koʻnikmalarni rivojlantirish va maʼnaviy salohiyatini oshirish;
- C) Fan sohasi boʻyicha oʻquvchilarning nazariy bilimlarini boyitish ularning maʼnaviy olamiga ijobiy taʼsir oʻtkazish orqali fanga boʻlgan muhabbatini oshirish, ilmiy xulosalash va fikrni erkin ifodalash hamda nutqiy madaniyatni shakllantirish va ularni rivojlantirish;

Dars usuli: ogʻzaki, yozma;

Dars uslubi: “Metro usuli” va fanlararo bogʻlanish

Dars tipi : Noanʼanaviy

Darsning borishi: I. Tashkiliy qism: a) sinfni darsga tayyorlash

- b) sinf tozaligi eʼtibor berish ;
- c) navbatchini aniqlash ;
- d) davomad olish;
- e) psixologik muhit yaratish;

II. Asosiy qism: a) oʻtgan mavzuni soʻrash ;

- b) yangi mavzu bayoni ;
- c) topshiriqlar bajarish;
- d) darsni mustahkamlash;
- e) uyga vazifa;

Sen bugun sinfda shod yurak bilan
Sinov navbatini kutib turasan
A'lo mamlakatning a'lo farzandi
Bilib qo'yki seni vatan kutadi.
(G'G'ulom.)

Mavzu rejasi :

1. Mahmud Qoshg`ariy va uning “Devonu lug`otit – turk” asar tahlilii;
2. Metro o'yini bunda uch bekatni bosib o'tish;
3. Uyga vazifa M.Qoshg`ariy asarlarini tahlil qilish

Bizning sinfimiz VII guruhga ajratilgan guruhlar bilan tanishing :

1guruh “Adabiyotshunoslar ”

2 guruh “Tilshunoslar”

3 guruh ”Tarixchilar ”

4 guruh “Rassomlar ”

5 guruh “San’atkorlar”

6 guruh “Ekspertlar ”

Jahon ayvonida qanday voqealar va hodisalar sodir bo'lmoqda kim qanaqa ma'lumot aytadi

Voqealar eshitiladi

Demak bugungi darsimizning asosiy mavzusi : Mahmud Qoshg`ariy va uning “Devonu lug`otit – turk” asari tahlili.

Darsimizni ning asosiy shartida Mahmud Qoshg`ariy va uning “Devonu lug`otit – turk” asari tahlili.

Har bir guruh o'z yo'nalishi asosida asarni tahlil qilishadi

1guruh “Adabiyotshunoslar ”Adabiy tahlil qilishadi

2 guruh “Tilshunoslar”Adabiy til nuqtaiy nazarida tahlil qilish

3 guruh ”Tarixchilar ” Asarningning tarixi buguni va ertasi haqida malumot berishadi

4 guruh “Rassomlar ” Ushbu guruh o'quvchilari asargagi qahramonlar va voqealar tasvirini chizishadi

5 guruh “San’atkorlar” sahna ko'rinish ko'rsatishlari kerak.

6 guruh “Ekspertlar ” Guruhlarni baholashadi.

Yigitlarig ishlatu,
Yag`ach yamish irg`tu,
Qulan keyik avlatu,
Bazram qilib avnalim.

Ma`nosi:

O`yin-kulguni tasvirlab deydi:

Yigitlarni ishlatib, daraxt mevalarini qoqtiraylik, turli yovvoyi hayvonlar (qulon) va boshqalarni ovlating, bir necha kun bayram qilib yayraylik.

Metro o`yinida biz har bir guruhdan bir nafardan o`quvchi savol berish tanlab olinadi. Va ular Metroga tushish uchun bizning jetondagi savollarga javob berishlari kerak bo`ladi

Olti o`quvchi tanlab olindi ular uchta bekatni osib o`tishi kerak.

1. "M.Qoshg`ariy ijodi" bekat
2. "Devonu lug`otit – turk" bekat
3. "Xalq qo`shiqlari" bekat

Diqqat! Eshiklar ochiladi qariyalar yoshlarga yo`l bering sumka va narsalaringizni unutmang keyingi bekat . "M.Qoshg`ariy ijodi" bekat

Bekati. Ushbu bekatda. M.Qoshg`ariy ijodi haqida gapirib berishingiz kerak bo`ladi

1). Mahmud Qoshg`ariy Balasog`un shahrida dunyoga kelgan. Uning to`liq ismi Mahmud ibn Husayn ibn Muhammaddir.

Hozirgi Qirg`izistonda Barsg`on daryosi va Barsg`on dovoni bor. Ular Issiqko`l atrofida joylashgan. Xuddi shu yerda Barsg`on shahri bo`lgan. Mahmudning otasi va bobosi ana shu shaharda edi. Otasi Qashqarga ko`chib kelgan va Mahmud shu yerda tug`ilgan. Shuning uchun ham Qoshg`ariy nomini olgan.

Mahmud qoshg`riy Samarqand, Buxoro, Bog`dodda tahsil olgan, arab, fors, rumoniy kabi 8-9 tilni mukammal egallagan. U qandaydir bir qirg`in paytida ota yurtini tashlab chiqib ketgan. Mahmud ko`p o`lkalarni kezadi va 1118-yilda Qashg`arga qaytib kelib, madrasada dars beradi. Olim 97 yoshida vafod etadi va O`poldagi ajdodlari maqbarasiga dafn etiladi. Maqbara hozirgacha “Hazrati Millom mozori” nomi bilan mashhur. M.Qoshg`riy ilk geograf. Botanik, zoolog, folklorshunos, etnograf, adabiyotshunos, shoir, tarixchi va qomusiy olimdir. Uning “Javihir-un nahv fi lug`otit turk” (“Turk tili sintaksisi qoidalari”) asari topilmagan.

Diqqat! Eshiklar ochiladi, qariyalar yoshlarga yo`l bering sumka va narsalaringizni unutmang. Keyingi bekat “Devonu lug`otit – turk” bekati.

Ushbu bekatda. M.Qoshg`riyning “Devonu lug`otit – turk” asari haqida gapirib berishingiz kerak bo`ladi

2). “Devoni lug`otit turk” (“Turkiy so`zlar devoni”) asari milodiy 1072-yilda yozila boshlangan va 1074-yilda tugatilgan (hijriy 464-466-yillar). Muallif bu haqda shunday degan: *“Kitob 464-yilda (hijriy) jumadul avval boshlarida boshlandi va to`rt karra yozilgandan (ko`chirilgandan) va tuzatilgandan so`ng 466-yil jumadul oxirining 12-kuni bitirildi”* Bu vaqtda 50 yoshda bo`lgan. Umuman olganda, bu asar XI asrda yozilgan bo`lib, turkey so`zlar lug`ti hisoblanadi.

Bu kitobda O`rta Osiyoda yashagan turkey xalqlarning XI asrgacha bo`lgan badiiy ijodi to`g`risida juda qimmatli ma`lumotlar jamlangan bo`lib, unda qadimgi qabilaviy hayot, ovchilik, dehqonchilik, chorvachilik bilan bog`lanib ketadigan lavhalar ko`p uchraydi. Muallif unda so`zlarning ma`nosini arab tilida izohlab beradi. Misol sifatida ko`plab xalq maqollari, hikmatlari, qo`shiqlaridan keltirgan. Bu haqda Mahmud Qoshg`ariyning o`zi yozadi: “Men bu kitobni maxsus alifbe tartibida hikmatli so`zlar, saj`lar, maqollar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim. Bu ishda misol tariqasida turklarning tilida qo`llanib kelgan she`rlaridan shodlik va

motam kunlarida qo`llaniladigan hikmatli so`zlardan, maqollardan keltirdim”.

“Devonu lug`otit turk” asarining asl qo`lyozmasi bizgacha yetib kelmagan. Uning yozilgan sanadan 200 yil o`tgach ko`chirilgan birdan-bir nusxasi Istanbul kutubxonasida saqlanmoqda. Uch jilddan iborat bu kitob 1939-1941-yillarda hozirgi turk tiliga tarjima qilinib nashr etilgn. O`zbekistonda “Devon”ning birinchi tadqiqotchisi va qisman noshiri professor Fitratdir. Bu asarni filologiya fanlari doktori, naniqli tilshunos olim S.Mutallibov hozirgi o`zbek tiliga o`giran.

“Qoshiq”, “she`r”, “qasida”, “marsiya”, “afsona”, “maqol” kabi atamalar ilk bor shu asarda qo`llangan va uyg`ur yozuvi haqida ham ilk ma`lumotlar keltirilgan. Mahmud Qoshg`ariy “Devonu lug`otit-turk” asarida nazriy jihatdan *qo`shiq, she`r, qasida* kabi tur va janrlarga to`xtamagan.

Diqqat! Eshiklar ochiladi qariyalar yoshlarga yo`l bering sumka va narsalaringizni unutmang. Keyingi bekat “Xalq qo`shiqlari” bekati Bekati. Ushbu bekatda Devonu lug`otit – turk asaridan o`rin ilgan xalq qo`shiqlari haqida gapirib berishingiz kerak bo`ladi

3). “Devonu lug`otit-turk”dagi she`riy parchalar shakliga ko`ra ikkilik va to`rtliklardan tashkil topgan bo`lib, ularning ko`p qismi pand-nasihat, o`gitlardan iborat. Asardagi xalq qo`shiqlarining tasvir usullari ham nihoyatda xilma-xildir.

Mahmud Qoshg`ariy umri davomida qilgan mashaqqatli mehnati evaziga qomusiy olim va tolmas sayyoh bo`lib tanildi. U turkiy til grammatikasini ishlab chiqqan birinchi tilshunos olimdir. Turkcha, arabcha lug`atning birinchi namunasi ham uning nomi bilan bog`liq. “ devonu lug`ot it-turk” Mahmud Qoshg`ariy qoldirgan va turkiy xalqlar uchun bebaho bo`lgan qomusiy asardir. Bu asarda olim turkiy tildagi so`zlar ma`nosini arab tilida izohlab beradi. Misol sifatida esa maqollardan va badiiy adabiyotdan parchalar keltiradi.

Bu haqda Mahmud Qoshg`riyning o`zi yozadi: “Men bu kitobni maxsus alifbe tartibida hikmatli so`zlar, sajlar, maqollar va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim... Bu ishda misol tariqasida turklarning tiliga qo`llanib kelgan she`rlaridan, shodlik va motam kunlarida qo`llaniladigan hikmatli so`zlardan, maqollardan keltirdim”.

Shunday qilib bu kitobda O`rta Osiyoda yashagan turkiy xalqlarning XI asrgacha bo`lgan badiiy ijodi to`g`risida juda qimmatli ma`lumotlar jamlangan. Bular hozirgi avlodlar uchun ham nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Mahmud kitobida “Devonu lug`ot it-turk” (“Turkiy tillar lug`ati”) deb nom beradi va uni Abulqosim Abdullo binni Muhammad al-Muqtadoga bag`ishlaydi.

“Devonu lug`ot it-turk” XI asrda yozilgan bo`lsa-da, unga jamlanga badiiy parchalar turkiy xalqlar adabiyotining ancha oldingi davrlarida vujudga kelgan, unda jamlangan xalq og`zaki ijodi namunalarining ko`pi asar yozilgan davrdan 5-6 asr qadimroq. Ularda turkiy xalqlarning urf-odatlarini, ishonch-e`tiqodlari marosimlar bilan bog`lanib ketadigan badiiy lavhalarni ko`ramiz.

Darsni mustahkamlash uchun o`quvchilarga bir nechta savollar beriladi:

1. “Devonu lug`ot it-turk” asari nomining ma`nosi nima?
2. M.Qoshg`ariy qaysi asrda yashagan?
3. Mahmud Qoshg`riy “Devonu lug`otit-turk” asarida qanday tur va janrlardan foydalangan?

Guruhlar bahosini Ekspertlar guruhlarning jami bahosini aniqlagunga qadar o`quvchilardan adabiyot haqida she`rlardan namunalar aytishadi.

Uyga vazifa : Mahmud Qoshg`riy “Devonu lug`otit-turk” asaridan parcha yod olish.

Guruhlarga rahmatlar aytamiz va hammalarini besh baho bilan baholaymiz.

Navoiy davlat pedagogika instituti O`zbek filologiyasi fakulteti bitiruvchisi
Bobojonova Dilfuzaning "Devoni lug`otit – turk asarida mavsum va
marosim qo`siqlarining matni ustida ishlash mavzusidagi kurs ishiga

T A Q R I Z

Maktablarda ta'lim – tarbiya jarayonini shakllantirish, samarador usullar orqali bolalarga singdirish, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bu ishni amalga oshirish ko`proq ona tili va adabiyot darslarining zimmasiga tushadi. Shuning uchun ham "Maktabda ona tili va adabiyot darslarini o`qitishning bosh maqsadi, sog`lom, e`tiqodli o`zga insonlarning tuyg`ularini anglaydigan, yuksak didli, axloqan barkamol, aqlan yetuk, o`z hatti – harakatlariga mas`ul bo`la oladigan komil insonning ma`naviy dunyosini shakllantirishdan iboratdir", - deb alohida ta`kidlanadi.

Adabiyot fanini o`qitishda ta`limning faol usullarini tadbiq etish yo`llari, ijodiy tafakkur sohiblarini, ma`naviy barkamol shaxslarni tarbiyalash bugungi kun adabiyot fani o`qituvchilari oldiga jiddiy ma`suliyatni qo`ymoqda. Taqrizlanayotgan bitiruv malakaviy ishi mana shunday ma`suliyatli vazifaning yechimiga qaratilgan. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kurs ishi kirish, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan iborat. Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tuzilishi, ishning umumiy tavsifi atroflicha yoritilgan.

Talaba mavzuni o`rganishda bir qancha darsliklardagi mavzularni misol tariqasida ko`rsatib o`tgan. Bunday ishlarni tadqiqot davomida mazmunli qilib namoyon etgan.

Kurs ishining xulosa qismida bitiruvchining mavzu yuzasidan barcha nazariy fikr-mulohazalari umumlashtirilib yakunlangan.

Ishni tugallanganligini inobatga olib, ushbu tadqiqotni himoya qilish uchun tavsiya etaman.

Taqrizchi:

katta o`qituvchi. Sattorova M.